**Abstract:** This article discusses the organizations and institutions regulating small business activities, the interests of local authorities in the development of small business and the areas of influence on the economy of the region, the sequence of organizing coordinated actions of competent organizations in the formation of an effective structural structure of small business in the region, measures aimed at ensuring legal protection of business activities, increasing the level of legal knowledge of entrepreneurs and ensuring compliance with current legislation.

**Key words:** small business, specialization, industry, structural structure of small business, formality, main levers, effective structural structure of small business in the region.

**Аннотация:** В статье рассматриваются организации и учреждения, регулирующие деятельность малого бизнеса, интересы органов местного самоуправления в развитии малого бизнеса и направления их влияния на экономику региона, последовательность организации скоординированных действий компетентных органов по формированию эффективной структурной структуры малого бизнеса в регионе, меры, направленные на обеспечение правовой защиты предпринимательской деятельности, повышение уровня правовых знаний предпринимателей и обеспечение соблюдения действующего законодательства.

**Ключевые слова:** малый бизнес, специализация, отрасль, структурная структура малого бизнеса, формальность, основные рычаги, эффективная структурная структура малого бизнеса в регионе.

## KIRISH

Kichik biznesning tarkibiy tuzilmasi asosan biznes subyektlarining o'z kapitalini eng yuqori daromad keltiruvchi iqtisodiy faoliyat turlariga kiritishga intilishi asosida shakllanadi. Bu boradagi yo'naltiruvchi kuch bo'lib rasmiy va norasmiy axborotlar, ya'ni, rasmiy statistika ma'lumotlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlari, korxonalarining faoliyat natijalarini ifodalovchi xatti-harakatlari (reklamalar, rahbar va menejerlarning intervyulari, xodimlarni rag'batlantirish darajasi, yangi ko'chmas mulklarning xaridi, ishlab chiqarish texnologiyalari, mashinalar parkining yangilanishi va h.k.) hisoblanadi. Ya'ni, aksariyat hollarda bu boradagi ochiq axborotlarning yetishmasligi tufayli, norasmiy bozor signallari asosida harakat qilinadi. Biroq, bu bozor signallarining harakati xaotik tavsifga ega bo'lib, ularga ko'r-ko'rona ergashish oqibatida ko'plab biznes egalari bankrotlik holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes faoliyatining turli jihatlarini xorijiy mamlakatlarning ko'plab olimlari, jumladan, Anikina V.V., Gryaznova A.G., Borodina Ye.A., Krasnov D.A., Lapusta M.G., Salina O.V., Starostin Yu.L., Xait M.M. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan [2,3,4,5,6,7].

Kichik biznes sohasining rivojlanishi hamda uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki masalalari Bakiyeva I.A., Zakirov F.Sh., Ibragimov F.A., Ibragimova M.M., Rasulmammedov A.D., Sultanova G.K., Yuldashev D.T., G'afurov U.V. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan [8,9,10,11].

Yuqorida qayd etib o'tilgan olim va mutaxassislarning tadqiqotlarida ilgari surilgan ilmiy g'oya va xulosalarning ahamiyatini e'tirof etgan holda, hozirgi sharoitda kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyatidagi ishtiroki samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etishni taqozo etuvchi jihatlarining mavjudligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy ilmiy-nazariy qoidalarni ishlab chiqishda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, monografik tadqiq etish, taqqoslash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes faoliyatini tartibga solishda davlat idoralari va tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va birlashmalar, xususiy tashkilotlar va infratuzilma, ta'lim va ilmiy muassasalari muhim rol o'ynaydi (1-jadval).

1-jadval. Kichik biznes faoliyatini tartibga soluvchi tashkilot va muassasalar [1]

Tashkilot turi	Tashkilot nomi	Vazifasi
Davlat idoralari va tashkilotlari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va moliyaviy rag'batlarni tartibga solish
	Soliq qo'mitasi	Soliq to'lovlarini nazorat qilish va imtiyozlar berish
	Adliya vazirligi	Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va qonuniy himoya qilish
	Investisiya va savdo agentliklari	Sarmoyalarni jalb qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash
Nodavlat tashkilotlar va birlashmalar	Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlar uyushmalari	Tadbirkorlarni birlashtirish va davlatga tavsiyalar berish
	Kengashlar va biznes forumlar	Muloqot qilish va innovatsiyalarni targ'ib qilish
	Maslahat markazlari va biznes inkubatorlar	Biznes boshlashda maslahat va qo'llab-quvvatlash
Xususiy tashkilotlar va infratuzilma	Banklar va moliya institutlari	Kreditlar, mikromoliya va sarmoya jalb qilish
	Konsalting kompaniyalari	Biznes boshqaruvi va moliyalashtirish bo'yicha maslahatlar
	Audit va hisob-kitob tashkilotlari	Soliq va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash
Ta'lim va ilmiy muassasalar	Biznes maktablari va o'quv markazlari	Treninglar va ishbilarmonlik ko'nikmalarini oshirish
	Tadqiqot institutlari	Bozor tahlili va innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish

Hozirda ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab tashkilot va muassasalar faoliyat yuritmoqda (4.8-jadval). Biroq, ushbu tashkilot va muassasalarning kichik biznesning tarkibiy tuzilmasini samarali shakllantirishdagi ta'siri, imkoniyatlari yoki manfaatdorligi unchalik yuqori emas. Masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligining ushbu vazifalarni quyi hududlar — ya'ni tuman va shaharlar darajasida bajarish imkoniyati cheklangan yoki samarasiz bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, bu vazifalar Soliq qo'mitasi, Adliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo agentliklarining to'g'ridan-to'g'ri vakolatlari yoki funksional majburiyatlari doirasiga ham kirmaydi. Xuddi shuningdek, nodavlat tashkilotlar va birlashmalar, xususiy tashkilotlar va infratuzilma, ta'lim va ilmiy muassasalar ham mazkur vazifalar bilan bevosita shug'ullanmaydilar.


Shunday ekan, kichik biznes tarkibiy tuzilishini samarali shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga bevosita mas'ul idora mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy tuzilmalari hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston

Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining "Mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati" deb nomlangan 1-moddasida: "Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini ... ta'minlaydi" [1], "Xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari" deb nomlangan 19-moddasida: "Xalq deputatlari Kengashlarida, qoida tariqasida, quyidagi doimiy komissiyalar tuziladi: mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha..." [1], "Hokimlarning vakolatlari" deb nomlangan 21-moddasida: "Viloyat, tuman, shahar hokimi: ...hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi..." [1] deb belgilab berilgan. Mahalliy hokimiyatlarning o'z hududlarida kichik biznesni rivojlantirishdan manfaatli tomonlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (2-jadval).

2-jadval. Mahalliy hokimiyatlarning kichik biznesni rivojlantirishdan manfaatdorligi hamda hudud iqtisodiyotiga ta'siri yo'nalishlari [12]

Manfaatdorlik yo'nalishi	Hudud iqtisodiyotiga asosiy ta'siri	O'zaro bog'liq jihatlari
Hududni iqtisodiy rivojlantirish	Mahalliy budjetga soliq tushumlari hajmini oshirish	Kichik biznesning o'sishi mahalliy budjetga tushadigan soliq tushumlarini ko'paytirish imkonini beradi. Bu mablag'lar hududiy infratuzilmani yaxshilash va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga sarflanadi
	Hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash	Turli sohalarda kichik biznesning rivojlanishi hudud iqtisodiyotini barqarorlashtiradi va uni turli xavf-xatarlarga nisbatan chidamli qiladi
Ish o'rinlari yaratish va bandlikni ta'minlash	Hududdagi ishsizlik darajasini pasaytirish	Kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy aholining bandligini ta'minlaydi
	Hudud aholisining daromadlarini oshirish	Yangi ish o'rinlari orqali mahalliy aholi moliyaviy barqarorlikka erishadi, bu esa umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi
Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash	Hudud aholisi farovonligini oshirish	Kichik biznes rivojlanishi orqali aholining turmush darajasi yaxshilanadi
	Aholining ijtimoiy muammolarni hal etish	Kichik biznes ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirib, hudud aholisining ko'plab ijtimoiy, masalan, ta'lim, tibbiyot, xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarini hal qiladi
Infratuzilmani yaxshilash	Shahar va qishloq hududlarini obodonlashtirish	Kichik biznes infratuzilmaga sarmoya kiritadi, bu esa mahalliy hokimiyatlarga shaharsozlik va kommunal xizmatlarni rivojlantirishda ko'maklashadi.
	Turizm va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	Kichik biznes hududning turistik jozibadorligini oshirishda muhim o'rin tutadi
Innovasiyalar va texnologiyalar	Hududdagi innovasion g'oyalarni rag'batlantirish	Kichik biznes yangi texnologiyalarni tatbiq etish va innovatsion yechimlarni amaliyotga keng joriy qilishda faol rol o'ynaydi.
	Texnologik infratuzilmani rivojlantirish	Mahalliy hokimiyatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlab, texnologiyalarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga harakat qiladi.
Demografik manfaatlar	Hudud aholisi o'sishini qo'llab-quvvatlash	Kichik biznes rivojlangan hududlarda aholining ko'chib kelishini rag'batlantirib, ularning o'sishiga imkon yaratadi.
	Yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish	Yoshlarni kichik biznes sohasiga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi.
Hududiy brend va jozibadorlik	Hududning iqtisodiy imijini shakllantirish	Kichik biznesning muvaffaqiyatli faoliyati mahalliy hokimiyatlarning investitsiyalar uchun jozibadorligini kuchaytiradi.
	Hududga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish	Kichik biznes mahalliy hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Mahalliy hokimiyatlar hududdagi kichik biznesning rivojlanishidan bevosita manfaatdor ekan, demak uning samarali tarkibiy tuzilishini shakllantirish jarayonlarini ham mahalliy hokimiyat kuzatib borishi hamda tartibga solishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga ko'ra, yuqorida bayon etib o'tilgan bozor (iqtisodiy) va ma'muriy dastaklardan foydalangan holda kichik biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash va tartibga solishga mutassadi tashkilotlarning o'zaro uyg'un harakatini tashkil etishning boshlang'ich nuqtasida aynan mahalliy hokimiyat idoralari turmogi lozim (1-rasm).



1-rasm. Hududdagi kichik biznesning samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda mutassadi tashkilotlarning o'zaro uyg'un harakatini tashkil etish [12].

Yuqoridagi 1-rasmda ifodalangan hududdagi kichik biznesning samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda mutassadi tashkilotlarning o'zaro uyg'un harakatini tashkil etish jarayonlarining har birining mazmunini belgilangan raqamlar ketma-ketligida ko'rib chiqamiz.

1. Tuman yoki shahar darajasidagi mahalliy hokimiyatning iqtisodiy bo'limi o'z hududida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy tuzilmasini (jami subyektlarga nisbatan foiz hisobida) aniqlaydi.

2. Har bir iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha kichik biznes subyektlarining rentabellik darajasini baholaydi. Bunda Audit va hisob-kitob tashkilotlari hamda Tadqiqot institutlarining yordamidan foydalanishi mumkin.

3. Kichik biznes subyektlarining rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda iqtisodiy faoliyat turlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bunda eng yuqori rentabellikka ega iqtisodiy faoliyat turining ko'rsatkichi 1 koeffitsiyentga teng deb olinib, qolgan iqtisodiy faoliyat turlarining qiymatlari ularning amaldagi rentabellik darajalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi: 0 ga teng rentabelli ( $R=0$ ), o'ta past rentabelli ( $R=0,1-0,24$ ), past rentabelli ( $R=0,25-0,39$ ), o'rtacha rentabelli ( $R=0,4-0,54$ ), o'rtachadan yuqori rentabelli ( $R=0,55-0,69$ ), yuqori rentabelli ( $R=0,7-0,84$ ) va o'ta yuqori rentabelli ( $R=0,85-1,0$ ).

4. Qator yillar davomida hududdagi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha rentabellik darajasining dinamikasi o'rganib chiqiladi.

5. Tahlillar orqali iqtisodiy faoliyat turlari (tarmoqlar)dagi asosiy tendensiyalar aniqlanadi: jadal ravishda kengayib (o'sib) boruvchi, bir maromda kengayib (o'sib) boruvchi, o'zgarmasdan qolayotgan, bir maromda qisqarib (pasayib) boruvchi, keskin ravishda qisqarib (pasayib) boruvchi tarmoqlar.

6. Tahlillar orqali iqtisodiy faoliyat turlari (tarmoqlar) bo'yicha kichik biznes subyektlari o'rtasidagi raqobat darajalari aniqlanadi: o'ta keskin raqobat, keskin raqobat, mo'tadil raqobat, past raqobat, o'ta past raqobat, raqobat mavjud emas.

7. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida tegishli hudud bo'yicha "Kichik tadbirkorlikning samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish dasturi" ishlab chiqiladi va uni ma'qullatish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hududlar bo'yicha tuzilgan umumiy dasturlarni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va asosiy ko'rsatkichlari, shuningdek, mahalliy budjetlarning daromad va xarajat parametrlari bilan muvofiqligini tahlil qiladi, zarurat tug'ilganda ularga tegishli tuzatishlar kiritib, tasdiqlaydi.

8. Soliq dasturlari (instrument) orqali kichik biznes tarkibiy tuzilishini samarali shakllantirish jarayonlariga sezilarli ta'sir etish mumkin. Soliq qo'mitasi kichik biznes subyektlarining samarali tarkibiy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi mumkin. Bunda u samarali tarkibiy tuzilma uchun muhim hisoblangan, biroq iqtisodiy holati yomonlashib borayotgan kichik biznes subyektlariga qonuniy tartibda qo'llab-quvvatlash choralari orqali yordam berishi mumkin. Ushbu yordam soliq majburiyatlarini yengillashtirish, huquqiy maslahatlar berish va tadbirkorlik faoliyatini tiklashga qaratilgan bo'lib, quyidagi choralar tizimini qamrab oladi:

1) soliq majburiyatlarini yengillashtirish: qiyin iqtisodiy sharoitda soliq to'lovlarini vaqtincha kechiktirish yoki to'lov muddatini uzaytirishdan iborat soliq ta'tillarini taqdim etish; faoliyati murakkablashgan tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini kamaytirish yoki qo'shimcha imtiyozlar joriy etish; soliq qarzdorligini qisman kechirish yoki qisqa muddatli shartlarda qayta moliyalashtirish;

2) soliq to'lovlari bo'yicha maslahatlar berish: soliq'larni to'g'ri hisoblash va to'lash bo'yicha maslahat berish; qonunchilikdagi yangiliklar, imtiyozlar va taqdim etiladigan soliq yengilliklari haqida ma'lumot berish; soliq nazorati jarayonida ishonchlilikni oshirish va tavakkallarni kamaytirish bo'yicha maslahat berish;

3) davlat dasturlari va qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari: imtiyozli dasturlar, ya'ni, kichik biznes subyektlari uchun maxsus soliq dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish; davlat subsidiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish va soliq kompensasiyalarini ta'minlash kabi choralarni amalga oshirish.

4) soliq nazoratlarini yengillashtirish: qiyin vaziyatdagi bizneslarga soliq tekshiruvlarini qisqartirish; soliq qoidalariga rioya qilish uchun ishbilarmonlarga maslahat va ogohlantirish xizmatlarini taqdim etish.

5) tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: iqtisodiy tiklanish strategiyalari, ya'ni tadbirkorlikni qayta tiklash bo'yicha takliflar ishlab chiqish; soliq to'lovlarni to'g'ri boshqarish uchun tadbirkorlarga treninglar, o'quv seminarlari va malaka oshirish kurslarini tashkil qilish.

6) Soliq yengilliklarini ommalashtirish: innovatsion va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar doirasida yangi biznes yo'nalishlariga nisbatan soliq imtiyozlari va yengilliklarni tatbiq etish; soliq imtiyozlari orqali kichik biznes subyektlariga raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini yaratish.

Bundan ko'rinadiki, Soliq qo'mitasi maxsus ishlab chiqilgan soliq siyosati vositasida biznes subyektlarining barqarorligini saqlab qolish va ularning tiklanishiga yordam berish orqali mazkur sohaning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

9. Kichik biznes tarkibiy tuzilishini samarali shakllantirishda Adliya vazirligining faoliyati ham muhim o'rin tutadi. Adliya vazirligi iqtisodiy holati yomonlashib borayotgan kichik biznes subyektlarini huquqiy yordam va qonunchilik doirasida qo'llab-quvvatlash orqali tartibga solishi mumkin. Ushbu ko'mak, asosan, biznes faoliyatining qonuniy himoyasini ta'minlash, tadbirkorlarning huquqiy bilim darajasini oshirish hamda amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlashga yo'naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

kichik biznesning shartnomalar bilan bog'liq muammolarini huquqiy yo'llar orqali hal qilishga yordam berish; shartnomalarni qayta ko'rib chiqish va qonuniy jihatdan optimallashtirish;

qayta moliyalashtirish va qarzlarni qayta tuzish bo'yicha huquqiy maslahatlar berish;

biznes yuritish uchun kerak bo'lgan litsenziya va ruxsatnomalarni olishda maslahat va amaliy yordam ko'rsatish;

kichik biznes subyektlarini qonunchilikdagi yangiliklar to'g'risida xabardor qilib borish;

tadbirkorlarning xorijiy hamkorlar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolarni yechimiga qaratilgan ishlarda ko'maklashish;

xususiy sektor va davlat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yuridik asosda yanada takomillashtirish;

tadbirkorlar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

kichik biznes subyektlarining mulkka oid huquqlarini poymol bo'lishidan himoya qilish;

davlat yoki xususiy tuzilmalar tomonidan qonunga hilof ravishda aralashuvlarning oldini olish;

qonunchilikdagi o'zgarishlar jarayonida kichik biznes subyektlari manfaatlarini inobatga olishni ta'minlash.

10. Kichik biznesning tarkibiy tuzilmasini samarali shakllantirishdagi investitsiyalar va savdo agentliklarining o'rni, asosan, investitsiyalarni jalb etish, savdo salohiyatini kengaytirish hamda eksport jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali o'z aksini topadi. Ayniqsa, investorlar bilan aloqalarni tashkil qilish, imtiyozli shartlarda sarmoya kiritish uchun xalqaro va davlat dasturlarini taqdim etish, investisiya muhitini yaxshilash, biznes subyektlariga yangi xalqaro bozorlarni aniqlashda maslahatlar berish, tovar va xizmatlarni eksportga chiqarish jarayonida texnik qo'llab-quvvatlash, sertifikatlash va standartlashtirish, xalqaro savdo ko'rgazmalarida qatnashish, mahalliy va xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlash uchun uchrashuvlar va forumlar tashkil etish, tashqi hamkorlar bilan kelishuvlarni tashkil qilish va hujjatlarni rasmiylashtirish, kichik biznesning samaradorligini oshirish, ish jarayonlarini qayta tiklash va xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmani yaratish va kichik biznesning yangi imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

11. Kichik biznesning tarkibiy tuzilmasini samarali shakllantirish jarayonida Savdo-sanoat palatasi (SSP) iqtisodiy ahvoli kuchsizlanib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga strategik, yuridik va amaliy choralar orqali yordam ko'rsatadi. Savdo-sanoat palatasining asosiy ustuvor vazifasi kichik biznes vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda samarali faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. SSP tomonidan ko'rsatilayotgan yordam, asosan, kichik biznes subyektlarining muammolarini bartaraf etish, ularni tiklash hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

12. Mahalliy hokimiyatlar Maslahat markazlari va biznes inkubatorlar orqali iqtisodiy holati yomonlashib borayotgan kichik biznes subyektlariga bir qator qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar orqali yordam berishadi. Ular

biznesni qayta tiklash, uning samaradorligini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari mumkin: grant va subsidiyalar olish uchun murojaat qilish; investitsiyalar jalb etish maqsadida biznes-rejalar ishlab chiqish va taqdim etish; kichik biznes subyektlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish; ish yuritish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha maslahatlar berish; bozordagi faoliyatni tiklash; tarmoqlanish va yangi mijozlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish; mehnat qonunchiligi, soliq va litsenziyalash talablari asosida ishlashda qo'llab-quvvatlovchi klasterlarga qo'shilish; iqtisodiy inqirozlariga bardoshlilikni oshirish strategiyalarini ishlab chiqish; innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etish va moliyaviy inqiroz sharoitida tadbirkorlikni qayta yo'lga qo'yishga ishonch uyg'otish.

13. Mahalliy hokimiyatlar Banklar va moliya institutlaridan iqtisodiy holati yomonlashib borayotgan kichik biznes subyektlariga bir qator moliyaviy, maslahat va qayta moliyalashtirish yechimlari orqali yordam berishlari mumkin. Bu chora-tadbirlar kichik biznesning barqarorligini saqlab qolish va uni rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan. Qarz to'lov muddatlarini uzaytirish, foiz stavkalarini pasaytirish, qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qarz boshqaruvi bo'yicha maslahatlar berish, ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, tavakkallarni sug'urta qilish shular jumlasidandir.

14. Mahalliy hokimiyatlar rentabellik darajasi past, keskin ravishda qisqarib (pasayib) boruvchi hamda raqobat darajasi past tarmoqlardagi korxonalarining faoliyatini jonlantirishda Konsalting kompaniyalari yordamidan keng foydalanishi mumkin. Konsalting kompaniyalari turli sohalardagi mutaxassislik bilimlari va tajribasini taklif etib, faoliyati susayib borayotgan yoki bankrotlikka yuz tutgan korxonalariga yordam berish bilan shug'ullanadi. Ular tashkilotlar va bizneslarga strategik qarorlar qabul qilish, operatsiyalarni yaxshilash va muammolarni hal qilishda maslahatlar berishadi. Konsalting kompaniyalari korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, uning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va yaxshilash, mahsulot va xizmatlarni bozorga chiqarish strategiyasini ishlab chiqish, axborot texnologiyalarini joriy qilish va ularni optimallashtirish, korxonada ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, katta loyihalarni rejalashtirish, boshqarish va monitoring qilish, qonunchilikka muvofiqlikni ta'minlash va huquqiy muammolarni hal qilish, bozor holatini tahlil qilish va yangi imkoniyatlarni aniqlashda yordam beradi.

15. Mahalliy hokimiyatlar kerakli darajada rivojlanmayotgan yoki raqobat darajasi past bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tadbirkorlar va malakali mutaxassislarni tayyorlashda Biznes maktablari va o'quv markazlari tarmog'idan keng foydalanishi mumkin. Bu jarayon mazkur muassasalarga mahalliy hokimiyatlar tomonidan davlat buyurtmasi yoki ikki tomonlama shartnomalar ko'rinishida tashkil etilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi O'zbekistonda kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilmasi shakllanishi jarayonlarini tartibga solishning bozor va ma'muriy dastaklaridan foydalanish jarayonlarining mahalliy hokimiyatlar tomonidan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilishi pirovardida mazkur soha samaradorligining sezilarli darajada oshishiga imkon yaratadi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida turli fondlar, kredit, moliyaviy va maslahat yordami ko'rsatish orqali kichik tadbirkorlikning maqbul tarkibiy tuzilmasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Shuningdek, davlat tomonidan ma'muriy tavsifdagi qonun va qoidalarni belgilash, biznesni rasmiylashtirish va litsenziyalashda maxsus talablarni ishlab chiqish orqali ham ushbu maqsadga yanada aniqroq erishilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida. 1993 yil 2 sentyabr, 913-XII-son. - <https://www.lex.uz/acts/112170>
2. Аникина В.В. Малый бизнес в условиях глобализации: проблемы и перспективы развития. - М.: Экономика, 2020.;
3. Грязнова А.Г., Бородина, Е.А. Экономические механизмы поддержки малого предпринимательства в России. - СПб.: Питер, 2019.;
4. Краснов Д.А. Государственная поддержка малого бизнеса в России и за рубежом. - М.: Юрайт, 2018.; Лапуста М.Г. Предпринимательство. - Учебник для вузов. – М.: ИНФРА-М, 2017.;
5. Салина О.В. Развитие малого предпринимательства в условиях цифровой экономики. - М.: Альпина Паблишер, 2021.;
6. Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - Учеб.пособие. – М.: ИНФРА-М, 1997.;
7. Хаит М.М. Развитие малого бизнеса на основе реструктуризации крупных предприятий // Вестн. Моск. ун-та. – Сер. 6; Экономика. – 2006. – №4. – С. 32-43.
8. Bakiyeva I.A. O'zbekiston yengil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish. Dis. ... iqt. fan. nomz. - T., 2012.;
9. Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish (Namangan viloyati misolida). Avtoref. ... iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T., 2018.;

10. Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Avtoref. ... iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T., 2019;
11. G'afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – Toshkent: Moliya, 2016. – 208 b.
12. Muallif ishlanmasi



**TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

# **IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI**

**YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**

**Ilmiy elektron jurnal**

**(MAXSUS SON)**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani  
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER  
2030

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24  
OCTOBER  
2025

3RD CONFERENCE:  
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:  
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

UZBEKISTAN  
STRATEGY  
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:  
BANKING AND  
FINANCIAL SYSTEM AND  
DIRECTIONS FOR DEVELOPING  
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ  
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025  
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

[strategy2025.tsue.uz](https://strategy2025.tsue.uz)

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH  
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY  
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS    ФОРУМ    UZBEKISTAN STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: [sq1141983@gmail.com](mailto:sq1141983@gmail.com)

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: [https://t.me/taraqqiyot\\_va\\_talim\\_uz](https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz)

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS"

1st CONFERENCE:  
DIRECTIONS FOR ENSURING  
SUSTAINABLE ECONOMIC  
GROWTH IN THE CONTEXT OF  
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030  
UZBEKISTAN  
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI  
VA XUSUSIY SEKTORNI  
RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI